



KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI



2024 yil 15-iyun

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami
2024 yil 15-iyun**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**an international scientific-practical conference
collection of abstracts**

**“PRIORITY DIRECTIONS FOR INCREASING THE
COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES”
on June 15, 2024.**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

сборник тезисов

**международная научно-практическая конференция
«ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ»**

15 июнь 2024 года

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2024**

Dasturiy qo‘mita

O.X. Xamidov	–	Universitet rektori, rais;
T.H.Rasulov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
D.Sh. Yavmutov	–	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, dotsent, a‘zo;
F.N. Nurulloyev	–	IT va IFRD boshlig‘i, a‘zo;
J.R. Toxirov	–	Marketing va menejment kafedrası mudiri, a‘zo;
B.N.Navruz-Zoda	–	Marketing va menejment kafedrası professori, a‘zo;
B.I. Adizov	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.U. Tadjiyeva	–	Marketing va menejment kafedrası professori, a‘zo;
N.M. Zayavitdinova	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
B.B. Adizov	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.K. Hakimov	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;

Tashkiliy qo‘mita

T.H.Rasulov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
D.Sh.Yavmutov	–	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, dotsent, rais muovini;
O‘.U.Rashidov	–	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
A.T. Jo‘rayev	–	Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, a‘zo;
J.R. Toxirov	–	Marketing va menejment kafedrası mudiri, a‘zo;
L.B.Navruz-Zoda	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
Z.T. Jurayeva	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
O.K. Xurramov	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
M.Sh. Boltayeva	–	Marketing va menejment kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
M.X. Ashurova	–	Marketing va menejment kafedrası dotsenti, a‘zo;
D.X. Xodjayeva	–	Marketing va menejment kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
N.Dj. Salixov	–	Marketing va menejment kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
M.A. Rajabova	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
H.H. Ziyavitdinov	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
K.F. Abdullayev	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
Z.Sh. Barnayev	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
R.E. Hamidov	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
D.N. Soliyev	–	Marketing va menejment kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar, sanalarning to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas’uldirlar.

Buxoro viloyatida diqqatga sazovar yoki turistik ob'ektlar soni tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 yil 2019 yilga nisbat an farqi, +, -	2021 yil 2020 yilga nisbat an farqi, +, -
1.	Madaniy meros ob'ektlari soni	birlik	829	829	829	-	-
2.	Muzeylar soni	birlik	18	18	18	-	-
3.	Ziyorat turizmi ob'ektlari soni	birlik	27	27	29	+2	+2
4.	Turistik restoranlar soni	birlik	73	87	88	+15	+1
5.	Tematik parklar soni	birlik	2	2	7	+5	+5
6.	Ekoturizm ob'ektlari soni	birlik	21	23	22	+1	-1
	JAMI	birlik	970	986	993	+23	+7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyatida diqqatga sazovar yoki turistik ob'ektlar soni 2019 yilda jami 970 ta, 2020 yilda 986 ta, 2021 yilda esa 993 taga oshib borgan. Bu holatga asosan, ziyorat turizmi ob'ektlari soni, turistik restoranlar soni, tematik parklar sonining ko'payishi sabab bo'lgan, biroq ekoturizm ob'ektlari soni -1 birlikka kamayib, salbiy tomonga o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonun // "Xalq so'zi" gazetasi, 1999 yil 14 sentabr.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi Farmoni, 1999 yil 30 iyun, PF-№2332.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi PQ-2980 sonli "2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlanirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Lex.uz.
- 4.o'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020 yil.
5. To'xliyev I.S. va boshqalar. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma-Samarqand, SamISI, 2010.
- 6.Boltabaev R., Tuxliev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. "Turizm: nazariya va amaliyot"darslik. T.: "Fan va texnologiya" 2018 y., 48-bet.
- 6.Navroz-Zoda Baxtiyor Negmatovich, Ibragimov Nutfillo Salimovich "Turistik hudud raqobatbardoshligining ko'p darajali modeli" Monografiya

“AVITSENA” TEMATIK PARKINI YARATISH IMKONIYATLARI

Xamroyev X. R.

Buxoro davlat universiteti, professor, i.f.n.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida turizm ashaddiy raqobat maydoniga aylangan sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz ham bu soda o'z o'rniga ega bo'lish uchun faoliyat olib bormoqda, jumladan, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonlaridan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ushbu strategiyani amalga oshirish maqsadida 19 - may 2017 yildagi "2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2980-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda: yaqin yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish dasturini tasdiqlash va uning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilishini samarali tashkillashtirish ko'zda tutilgan [1, 2, 3].

Jahonda O'zbekistondek go'zal tabiatga hamda tarixiy obidalariga ega yurtlar anchagina, shu bois chet eldan turistlarni ko'plab miqdorda jalb qilish oson emas. Buxoro shahri kabi faqat go'zal arxitektura yodgorliklari bilangina xorijliklarni jalb qilayotgan shahar uchun ikkita murakkab muammo mavjud - ularning biri turistlarni bo'lishligini oshirish bo'lsa, ikkinchisi mavsumiylikni yumshatish hisoblanadi.

Turistik oqimlar statistikasida muhim ko'rsatkich – turistni bo'lishining davomiyligi ko'rsatgichi foydalaniladi. Sayyohlarning Buxoroda bo'lishlik muddati o'rtacha 2-3 kunni tashkil etadi, xolos. (Masalan, Ispaniyada bu muddat 12 kunni tashkil etadi).

Bizga ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda, jumladan yevropaliklarda dam olishning ikki shakli mavjud: a) «uikend»da (hafta oxirida) dam olish va b) yillik ta'til davrida dam olish. Bulardan birinchisi rivojlangan mamlakatlarda odatda 2 kundan iborat, ikkinchisi esa 12 kundan - 30 kungachani tashkil etadi. Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari xalqi uchun «uikend» vaqtida O'zbekistonda bo'lish noqulaydir, buning sababi birinchi navbatda, xalqaro turizm uchun asosiy jo'natuvchi davlatlar, ya'ni AQSh va G'arbiy Yevropa sayyohlarining bu ta'til davrida O'zbekistonga kelib – ketishi masofaning uzoq bo'lganligi uchun o'zini oqlamaydi (5-6 soat samolyotda uchgandan keyin, ular hech bo'lmaganda o'sha kun dam olishlari kerak, ya'ni minimum bir kun uzoq yo'lni samolyotda bosib o'tish charchog'ini chiqarishga ketadi, undan tashqari hali yangi joydagi «soat belbog'i»ga moslashish ham bor). Shuning uchun O'zbekiston faqat yaqin qo'shnilaridan qisqa muddatga mo'ljallangan turlarni kutish mumkin. Ikkinchisi ta'til turi esa ancha uzun, bu muddatda respublika hududida boy davlatlardan keladigan, tanlash imkoniyati juda katta bo'lgan xorijiy turistlarni saqlab turish qiyindir. Shuning uchun Buxoro sayyohlik mahsulotlarini rang-barang qilish hamda qo'shni regionlar, hatto qo'shni davlatlarning turizmi potensialini qo'shish ustida ish olib borish kerak.

Yevropa va boshqa qit'a davlatlardan kelgan sayyohlar O'zbekistonda va boshqa qo'shni mamlakatlar hududida turist sifatida uzoqroq muddatda qolishi uchun eng avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida «Buyuk Ipak yo'li» sayyohlik mahsulotini shakllantirish ustida ish olib borish kerak. Biz esa Buxoro shahrining o'z turistik potensialini oshirish maqsadida hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda juda keng tarqalayotgan turistik ob'ektlardan biri – tematik parklarni tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Sayr – tomosha sektorida tematik parklar alohida o'rin tutadi. Keyingi vaqtlarda ular juda katta miqdordagi tarixiy, madaniy yodgorliklari bilan an'anaviy turistik manzillarga jiddiy raqobatchi bo'lishayapti. Tematik parklar g'oyasi Yevropada tug'ildi va huzur – halovat parklari ko'rinishida amalga oshirildi. XIX asr oxirlarida ko'plab Yevropa mamlakatlari poytaxtlari – Kopengagenda Sadi Tivoli, Venada Park Praterda va boshqa joylarda faoliyat ko'rsatishni boshlasdi. Hozirgi zamon tematik parklar modelini yaratuvchisi amerikalik rassom va proyudesser, kinorejissyor – multiplikator Uolt Disney deb hisoblansada, u birinchi bor Yevropada paydo bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, «Disneyland» ochilishidan uch yil avval 1953 yilda «De Efteling» korporatsiyasi Niderlandiyaning Janubiy – g'arbida Yevropa ertaklari motivlari asosida park barpo etgan. Ammo, ko'hna qit'ada tematik parklar kamtarona ko'lamda va sekin rivojlandi [9].

U chinakam ravishda AQShda gurkirab rivojlandi va so'ngra butun dunyo bo'ylab yoyildi. AQShda birinchi, tematik parklar 1950 - yillar o'rtalarida, an'anaviy dam olish tushkinlikka yuz tuta boshlaganda paydo bo'ldi [7].

Hozirgi paytda faqat AQShning o'zida 1000 dan ko'proq tematik parklarni sanash mumkin. AQShda «Mo'jizalar mamlakati»ning poytaxti Florida bo'lib oldi. Bu shtatda nafaqat Amerikadagi, balki butun dunyodagi eng yaxshi tematik parklar joylashgan: «Disney World», «Yuniversal Styudios» shular jumlasidandir. Ular bir necha marta jahon turistik biznesi sohasida tegishli nominatsiyalar bo'yicha nufuzli mukofatlarga sazovar bo'lishgan. "Disney Olami" parklari haqiqiy amerikacha faoliyat doirasi ko'lamidagi barpo etilgan dam olish va sayr-tomosha qilish industriyasidir. Uning jozibadorligi nafaqat turistlarni jalb etgan holda uyushtirilgan sayr-tomosha, balki ovqatlanish, ta'lim berish va o'ziga xos hayot tarzidagi murakkab infratuzilmasidadir. Hattoki, butun dunyodan kelgan turistlarning ertalabki va kechki nonushtada va boshqa tadbirlarda ham Uolt Disney qahramonlari bilan birgaligi kechayu-kunduz afsonaviy vaqtga tushib qolganday hissiyotda bo'lish mumkin [10,12].

Yevropada ham hisob-kitoblarga ko'ra, bir necha o'nlab yirik tematik parklar qurilgan. Ko'p sonli akvaparklar shular jumlasidandir. Ularning eng mashhurlari yiliga 2 mln. dan 10 millongacha

tashrif buyuruvchilarni qabul qiladi. Bu avvalo «Evro Disneyland», u o'zining amerikalik birodarlari singari U. Disney konserni tomonidan qurilgan va «Evro Disneyland» kompaniyasi boshqaruviga berilgan.

Tematik parklar sayyoramiz bo'ylab o'zlarining shohona yurishlarini Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo va Okeaniyada davom ettirdi. Jahon turizm bozoriga shiddat bilan kirib kelgan bu parklar turistik industriyaning ajralmas qismi sifatida gurkirab rivojlanmoqda.

Diqqatni tortar mavzu, u xoh «qo'rqinchli mamlakat»ga sayr bo'lsin, xoh dengiz sirlari qa'riga sayohat bo'lsin, park ishlari asosini tashkil etadi. Bular attraksion tomoshalarda rivojlanayapti, parkda barcha yordamchi xizmatlar ularga buysundirilgan. Tashkil etuvchilar, birinchi navbatda U. Disney fikricha, tematik park – bu oilaviy dam olish va sayr-tomosha markazi bo'lib, ko'p jihatdan mavzuning o'zini tanlashni belgilaydi. Turli yoshdagi odamlarni birlashtirish va birinchi navbatda katta yoshdagilarni jalb etish uchun u nafaqat ko'ngilxushlik maskani, balki bilimni boyitishga qaratilgan axborot – ma'lumot berish markazi ham bo'lishi kerak.

Tematik parklarni yaratish va qurish o'ziga xos va qiyin ish. Ammo, turizm rivojlanishini ko'zlasak ularni yaratish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon turistiga birgina arxitektura yodgorliklarini ko'rish kamlik qiladi. U kelgan yurtiga sho'ng'ib ketishni xohlaydi, hududning turli xil tadbirlari, namoyishlarida qatnashishni hamda rang-barang shoularni ham ko'rishni xohlaydi. Shular bilan u o'sha yurtning o'ziga xosligini bilib oladi.

Buxoro shahrida tarixni jonlantiruvchi teatrlashtirilgan shoular qo'yish bo'yicha ish olib borilmoqda. Jumladan, Buxoro Arkida amirning xorijiy elchilar bilan uchrashuvi epizodlarni o'z ichiga olgan tamosha qo'yiladi. Sahnalashtirilgan voqealar esa bundan bir asr oldingi hayotni aks etadi. Ammo, bu hozirgi turist uchun kamlik qiladi, uni rivojlantirish kerak. Bunga erishishning eng optimal yo'li – bu maxsus tematik parklar yaratish sanaladi [4, 5, 6.].

Tematik parklarni qurishning bosh motivi oilaviy tarzda dam olish va ko'ngilxushlik qilish uchun joy yaratishdan iborat. Turli yoshdagi kishilarni bir joyga birlashtirish uchun kattalar auditoriyasiga mos mavzuni tanlab bilish kerak. Kattalar o'z orqalaridan yoshlarni ergashtirib keladilar. Bu joylar quruq ko'ngilxushlik emas, balki ma'lumot olishga, nimanidir bilishga xizmat qilishi kerak.

Tematik parklar odatda turli mavzular atrofida yaratiladi - tarix, madaniyat, geografiya, sport va boshqalar. Xorijdagi tajriba shuni ko'rsatadiki, tematik parklar yo bir mavzu yoxud bir-biriga yaqin bir necha mavzuni olishi mumkin. Masalan, Gonkongda mashhur kinoaktyor Bryus Li shaxsiga bag'ishlangan tematik park faoliyat yuritadi. Bryus Li o'z faoliyatini asosan AQShda olib borgan bo'lsa ham, xitoylik bo'lganligi uchun uni o'z vatani bo'lgan shahrida park tashkil qilishgan. Unga taaluqli bo'lgan barcha narsani shu parkka yig'ib bilishgan va mohirona tarzda mehmonlarga ko'rsatib ham bilishmoqda.

O'zbekiston ham dinamik, turistik davlat sifatida tematik parklarni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari, xorijdan kelayotgan turistlar oqimi yildan – yilga ko'payib bormoqda. Ularni mamlakatimizda bo'lishini rang-barang qilish uchun ham bu kabi dam olish, hordiq chiqarish joylarini mamlakat poytaxtida hamda Buxoro va Samarqand kabi asosiy turistik shaharlarga barpo etish maqsadga muvofiqdir. Bu g'oyani to'rt yil oldin O'zbekiston respublikasining turizm qo'mitasi raisi vazifasini bajargan Aziz Abduakimov ko'tarib chiqqan edi [11].

Hozirgi paytda respublikamizda turli xil attraksionlarga ega bo'lgan 220 ta parklar mavjud. Keyingi paytlarda ularning ixtisoslashuvi sodir bo'lmoqda. Luna-parklar bilan bir qatorda akvaparklar tizimi rivojlanib bormoqda. Hatto birinchi ekopark ham paydo bo'ldi. Aziz Abduakimovning fikricha mamlakatda maxsus tematik parklar qurish vaqti keldi. Bunga keyingi yillarda xalq farovonligi ko'tarilayotganligi tufayli insonlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga harakat qilayotganligini ko'rish mumkin [11].

O'zbekistonda bu kabi tematik parklarni tashkil etish uchun qo'shimcha qulayliklar ham bor, jumladan, tematik parklarda ko'rsatiladigan xizmatlari uchun tashkilotlar uch yilga huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlardan, yer solig'idan, mulk solig'idan ozod qilingan. Bu ham investorlarni jalb qilishga yaxshi imkoniyatdir. Bundan tashqari, tematik parklar xorijdan olib kelinadigan texnika, uskunalar, qurilish va materiallar uchun bojxona to'lovlari to'lashdan ozod qilingan [qarang: 8.].

O'zbekistonda tematik parklar yaratish uchun qiziqarli joylar ham, qiziqarli mavzular ham juda ko'p. Masalan, Buxoroda tarixiy va madaniy mavzularga bag'ishlangan tematik parklar yaratish

mumkin. O'rta asr Buxorosi hayotini jonlantirish mumkin. XVI- XVIII asrlardagi savdo rastalari, tirik bo'lgan madrasa-yu - masjidlarni, mudarislar hayotini tiklash mumkin. Buning anchagina unsurlarini Buxoroda o'tkaziladigan festivallarda, jumladan "Ipak va ziravorlar" festivalida ko'rish mumkin. Faqat buning farqi u ikki kun emas, balki yil - o'n ikki oy olib borilishi kerak. Shunga qarab turistlar oqimi ham bo'ladi.

Buxoro shahrida uning mashhur farzandi bo'lgan Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan tematik park yaratilsa eng maqbul bo'ladi. Chunki buxorolik bu dahoni butun dunyo biladi, uni hayoti va faoliyatiga taaluqli narsalarni bilishga qiziqish juda yuqori bo'ladi.

Tematik parklar daromadlari bu biletlar, (barcha tushumlarning asosiy xarajatlar moddasining 70 % gacha), ovqatlanish, savg'oti mahsulotlar va o'yinchoqlar sotishdan hosil bo'ladi. Parklarda katta miqdorda savg'otilar sotiladi va ular albatta park ramzlari bo'ladi. Bundan tashqari, parkda dorivor o'simliklar savdosini ham yo'lga qo'yish mumkin.

Bunday turistik ob'ektlarning barpo etilishi yurtimizga keladigan sayyohlar sonini ko'paytirishga xizmat qilishi bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham katta foyda keltirishi shubhasizdir. Chunki, hisob-kitoblarga ko'ra mazkur parkdan yiliga kamida 1.0 mln AQSh dollari miqdorida daromad ko'rish mumkin. Albatta, daslabki yillarda bu daromadning asosiy qismini parkni yanada boyitish va kengaytirish sarflash ko'zda tutiladi.

"Avitsena" taxallusi bilan butun dunyoga mashhur Abu Ali Ibn Sinoga ta'luqli dunyoning rivojlangan davlatlari hududdagi barcha hujjat, topilma va tarixiy yodgorliklarning, hech bo'lmasa nusxalari o'zaro shartnomalar orqali olib keltiriladi va ommaga namoyish qilinadi. Dunyoning jamiyki davlatlaridagi tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning, tibbiyot sohasidagi talabalarning, Ibn-Sino siymosiga, uning hayoti va ijodiga qiziqadigan barcha insonning Buxorodagi Avitsena tematik parkiga kelish istagini tug'dirishga sabab bo'ladigan ob'ektlar turlarini ko'paytirish ustida izlanishlar olib boriladi. Nisbatan arzon turistik infratuzilmalarning mavjudligi, Buxoroda turistlarning ko'p muddatda qolishlariga sharoit yaratib beradi.

Odatda, ko'pchilik tematik parklar qir-adir, yam-yashil maydonlarda barpo etilgan. Bu joylarda yer shahardagidan ancha arzonligi asosiy sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchilik tematik parklar katta maydonlarni egallaydi. Ammo, biz taklif etadigan park uchun eng qulay joy Buxoroning Somoniylar parki hisoblanadi. Buning sababi, birinchidan, bu shaharning ko'rkam, yashil hududlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, bu park ichida Somoniylar davrining eng mashhur podshosining mavzoleyi mavjud. Somoniylar davri esa Buxoro tarixida eng yorqin, eng ahamiyatli davr hisoblanadi. Shuning uchun unga yaqin joyda Ibn Sinoning parkini joylashtirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu tematik parkni yurtimizning urf-odatlar va an'analaridan kelib chiqqan holda, ayniqsa Samoniy davri bilan hamohang tarzda bog'lab yaratsak, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Hozirgi holatda Somoniylar parki nisbatan ko'rkam bo'lganligi uchun ham ancha mablag' tejaladi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu kabi parklar turistlarni juda qiziqtiradi, shuning uchun hokimiyatlar investorlarni jalb qila oladi, faqat buning ustida qattiq ish olib borish kerak.

Ibn-Cino siymosi butun dunyoga mashhur bo'lsa-da, unga bag'ishlangan tematik park dunyoning hech qayeriga mavjud emas. Ammo, ayrim davlatlarda muzeylar mavjud. Tematik park dunyodagi barcha Avitsena haqidagi kam-mi, yoki ko'pmi, axborot beradigan mezeylar bilan raqobat emas, aksincha, hamkorlik qiladi. Ularga ham yaxshi bo'ladi, chunki, parkda mavjud ko'rgazmalar orqali ziyoratchilar o'sha, parkdagi ko'rgazmaning kelishiga sabab bo'lgan muzey haqida ham axborotga ega bo'ladilar.

Viloyatda tashkil etiladigan Abu Ali ibn Sino dahosini ko'z - ko'z qilishga qaratilgan tematik park viloyatning turizm sohasini rivojlanishiga va viloyat byudjetiga turizmdan tushadigan tushumning o'rtishiga xizmat qiladi. Uning viloyat uchun juda ko'plab foydali tomonlari mavjud bo'lib, bularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- ☐ Turistlar oqimining o'rtishiga xizmat qiladi;
- ☐ Jahon arxitektura durdonalaridan biri bo'lgan Somoniylar mavzoleylari kompleksini tematik park tassaruviga kiritilishi orqali to'liq holda tiklash imkoniyati paydo bo'ladi;
- ☐ Viloyatda kamida 150-250 o'rinli joylashtirish ob'ekti paydo bo'ladi;
- ☐ Abu Ali ibn Sino davri tibbiyoti bilan butun dunyoni tanishtiriladi;
- ☐ Turistlarning yurtimiz haqida chuqurroq va ko'proq taasurot olishiga xizmat qiladi.
- ☐ Somoniylar mavzoleyiga keladigan turistlar oqimini bir necha barobarga oshirib yuboradi.

Tematik parkdan kutilayotgan natijalar: Tematik parklarning iqtisodiy samarasi keng miqyosda o'rganib chiqiladi. Bu borada dunyodagi faoliyat ko'rsatayotgan mashhur siymolarga bag'ishlangan tematik parklar borib ko'riladi, ularning barcha tashkiliy tomonlari, ijobiy va salbiy tomonlari, iqtisodiy samaralari, amaliy tajribalari o'rganib chiqiladi. Ibn-Sino siymosi bilan bog'liq xorijiy davlatlardagi imkoni boricha ko'proq mavjud tarixiy hujjatlar, yodgorliklar o'rganiladi va xorijiy hamkorlik shartnomalari tuziladi. To'planadigan ma'lumotlar, tashkil qilinadigan ko'rgazmalar buyuk Ibn-Sino siymosining barcha qirralarini ochishga xizmat qilishi kerak bo'ladi. Bu sohada arab davlatlaridan tortib, g'arb davlatlari, hatto-ki Amerika Qo'shma Shtatlarining tibbiyot sohasiga ta'luqli muzeylari bilan ham hamkorlik qilishga to'g'ri keladi.

Ishlar ikki yo'nalishga olib borilishi maqsadga muvofiq:

1. Ibn-Sino haqida ma'lumotlar, hujjatlar, xalq afsonalarini, ilmiy hujjatlarni dunyo bo'ylab yig'ish;

2. Dunyodagi mavjud bo'lgan, mashhur insonlarga bag'ishlangan tematik parklarni, parklarga turistlarni jalb qilish usullarini, tajribalarini o'rganish va shu bo'yicha yangi strategiya ishlab chiqish.

Parkda Ibn-Sino siymosini ham professional medik sifatida, ham ko'p qirrali inson sifatida namoyon qilishga va bu narsalar oddiy odamlarga tushanadigan shaklda amalga oshirishga harakat qilinadi.

Ibn-Sino haqidagi hujjatlar, tarixiy yodgorliklar, u bilan bog'liq har qanday ma'lumotlar yig'ish doimiy tarzda davom etadi. Bunday narsalar soni chegarlangan bo'lsa-da, tematik parklarning jozibadorligini oshirish texnologiyasi, bu borada turistlarning qiziqtirish strategiyalari hamisha talabning o'zgarishi bilan yangilanib, turistlarlar ko'nikmalariga moslashib boriladi.

Ilg'or mamlakatlardagi tematik parklarning iqtisodiy samarasi keng miqyosda o'rganilib chiqiladi. Bu borada dunyodagi faoliyat ko'rsatayotgan mashhur siymolarga bag'ishlangan tematik parklar o'rganiladi, ularning barcha tashkiliy tomonlari, ijobiy va salbiy tomonlari, iqtisodiy samaralari, amaliy tajribalari o'rganib chiqiladi. Avitsena tematik parkini yaratish maqsadida turli xalqaro fondlarga, kompaniyalarga murojat qilinadi.

Quyidagi jadvalda loyihaning asosiy ma'lumotlari yozilgan boshlang'ich pasportini ko'rishingiz mumkin.

1-jadval.

Tematik park yaratishning dastlabki bosqichdagi reja

t/r	Ko'rsatgichlar nomi	Birligi	Qiymati
1	Loyihaning umumiy qiymati	Ming AQSh doll.	12000
2	Loyiha qamrab oladigan maydon hajmi	gektar	1,5
3	Loyihani hayotga tadbiq etish muddati	Oy	18
4	Loyihani moliyalashtirish manbalari	Xorijiy va mahalliy investorlar	
5	Tematik parkning bir kundagi sig'imi	kishi	6000
6	Loyihani o'z-o'zini qoplash davri	Oy	32
7	Tematik park to'liq ishga tushgach 1 yilda ko'rsatiladigan xizmat va mahsulotlar hajmi	Ming AQSh doll.	2000 - 3000
8	Tematik parkning yillik daromadi	Ming AQSh doll.	450
9	Obektda yaratiladigan ish o'rinlari	Ish o'rni	150 - 250
10	Ob'ektga keladigan xorijiy turistlarning ulushi	%	70
11	Ob'ektga keladigan mahalliy turistlarning ulushi	%	30

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Park bo'ylab ekskursiya chog'ida tashrif buyuruvchilar e'tiboriga havola etiladigan umumiy axborotlardan bu sayr - tomosha industriyasi ob'ekti to'liq o'qish jarayonini tashkil etishga o'tdi. Tematik park ma'lumotni oshirishga yirik maqsadli mablag' ajratiladi. Huzurida ixtisoslashgan maktablar ochiladi, o'qitish dasturlari tuziladi, mashg'ulot o'tishga o'qituvchilar taklif qilinadi, kitoblar chiqariladi. Ma'lumotni oshirish uqlari favqulodda kengayadi. Uning bir qismi kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan, boshqasi esa katta yoshdagi bolalar va kattalarga mo'ljallangan.

Shuningdek kattalar uchun qisqa muddatli seminarlar tashkil etiladi. Dastur mavzulari g'oyat xilmaxil.

Milliy urf-odatlar va an'alarimizdan kelib chiqqan holda, mazkur parkning maket loyihasini ishlab chiqdik. Mazkur loyiha uzoq muddatli strategiya asosida olib borilishini inobatga olsak, loyiha o'zini qoplash muddati 8-10 yilni tashkil etadi. Ammo, dastlabki bosqichi 36 oyda qoplanadi.

Xulosa qilib aytganda, bunday parklarni O'zbekistonda yaratish maqsadga muvofiq, chunki ular mahalliy va xorijdan kelgan turistlar uchun yaxshi dam olish maskanlariga aylanadi va ular oqimini ancha oshiradi. Tashkil etiladigan tematik park turizm sohasini rivojlanishiga va byudjetga turizmdan tushadigan tushumning o'tishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 - йил 26 - февралдаги "2016-2020 – йилларда хизматлар соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида"ги 55-сонли қарори.- <https://lex.uz>.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 - йил 15 - мартдаги "Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 137-сонли қарори.- <https://lex.uz>.
3. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi 2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-2980-sonli qarori. - <https://lex.uz>.
4. Razikovich K. K. The concept of creation the tourism economic zone" Bukhara" //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR). – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 41-52.
5. Хамраев Х. Р. Цитадель (арк) Бухары как важнейшая туристическая дестинация города //Конференциум АСОУ: сборник научных трудов и материалов научно-практических конференций. – Государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Московской области Академия социального управления, 2018. – №. 1. – С. 236-244.
6. Хамраев Х. Концепция создания туристической экономической зоны" Бухоро" //Alatoo Academic Studies. – 2016. – №. 2. – С. 231-236.
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Disneyland> Disneyland History – Important Events in Disneyland history. About.com. Архивировано из первоисточника 20 февраля 2012.
8. <http://xn--h1aqbfff.xn--p1ai/top-10/top-10-tematicheskije-parki/>
9. <https://kulturologia.ru/blogs/210816/31000/>
10. <https://odam.uz/Sayohat/butun-dunyodagi-kongilochar-tematik-parklar>.
11. <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistondagi-ilk-magic-city-tematik-parki-1-iyun-kuni-uz-eshiklarini-ochmok-da-39705>.
12. http://www.anl.az/el_ru/a/aa_mt.pdf. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г.-458с.

XALQARO TA'LIM TURIZMI KORXONALARINING GLOBAL TURIZM BOZORIDAGA TA'SIRI

Jo'rayev Abror Turobovich

Buxoro davlat universiteti, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori

Maxmudova Nodira Uktamovna

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası, tayanch doktorant

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi integratsion jarayonlar ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga, ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar, ayirboshlash va almashinuvi masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik faoliyatlarining intensiv rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mos ravishda, ta'lim turizmi bozorining xalqaro ko'lamda dinamik o'sishini kuzatish mumkin.

Ta'lim turizmi bozorining 30%i oliy ta'lim muassasalari bituvchilari hamda kasbiy ish faoliyati bilan band bo'lganlar, 26-45yoshdagilar segmentiga to'g'ri kelmoqda[1]. Ushbu yoshdagi

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li. Korxonalarda eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish.....	215
Opayev Biysenbay Aimanovich, Aydaniyazova Baxtigul Abilkasimovna. XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	221
Rashidov Mels Karimovich. ERKIN IQTISODIY ZONALAR LOGISTIKASIDA MAQBUL BUYURTMA MIQDORINI ANIQLASH MODELI VA UNI QO'LLASH SAMARADORLIGI.	224
Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li. HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTIONAL MUHITNING O'RNI	227
Алламуратова Гулчеҳра Мақсетбаевна. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР	229
Бобоева Гулнора Ганжиевна. ХУДУДИЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТ – КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ГАРОВИ.	231
Усубжонов Захриддин. ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ КОРХОНАЛАРИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИНИШИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	234
Тухтасинова Дилдора Рахмонбердиевна, Сайдуллаева Диёра Тухтасин кизи. ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА В НОВЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ.....	237
Masharipova Manzura Alimbayevna, Vaisov Dilshod Ibodullayevich. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY IQTISODIY MEKANIZMLARI	239
Бозоров Дадахон Берлимурадович. Хизмат кўрсатиш соҳасида ташкилий-бошқарув ва иқтисодий самарадорликни баҳолашга услубий ёндашув	242
To'xtasinova Dildora Raxmonberdiyevna. TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	245
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich. MINTAQALARNING MUVOZANATLI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH IMKONIYATLARI.....	249
Утепбергенов Алламберген Омирбаевич. ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ УСЛУГ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ	250

5-sho'ba. Turistik xizmatlarni ko'rsatadigan korxonalar raqobatbardoshligini

oshirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlari	254
Khamidov O.Kh. MODERN STATUS, PROBLEMS AND PERSPECTIVE DEVELOPMENT OF RELIGIOUS TOURISM IN BUKHARA.....	254
Toxirov Javlon Raximovich, O'rinova Dilobar. TURIZM SOHASIDA REKREATSIYA OBYEKTLARINING TUTGAN O'RNI VA REKREATSION TURIZM RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	258
Xurramov Ortikjon Kayumovich. Raqamli turizmni rivojlanishining bugungi kundagi holati va istiqbollari.....	261
Тешабаева О.Н., Жамолитдинова Мохинур. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЧКИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАРНИ СОТИШ УСУЛЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	263
Asadova Aziza Olimjonovna. O'ZBEKISTONDA TURISTIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA NOSTALGIK TURIZM BO'YICHA TURLARNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	269
Xurramov Ortikjon Kayumovich, Shuxratova Maxbuba Jamshid qizi. Turizmда ijtimoiy media va zamonaviy tendensiyalar	272
Akhrorova Nilufar Uktamovna. MARKET SEGMENTATION AND INNOVATION IN STUDENT TOURISM: A PATH TO COMPETITIVE ADVANTAGE	274
Азизов Шохазиз Самиевич. ЗАРУБЕЖНЫЕ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН.....	278
Abduvaliyev Doniyorbek Baxromjon o'g'li. TURIZMDA RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH SAMARADORLIGI	284
Хамидов Саиджон Комилович. Количественное и качественное комплексное создание ресурсостроения в группировке туристских дестинаций.....	286
Achilov Omon Aminovich. O'zbekistonda rekreatsion turizmni rivojlantirishning ahamiyati	290
Istamkhujay Olimovich Davronov. IMPROVING THE SKILLS OF HOTEL STAFF AS A MAIN COMPETITIVE ADVANTAGE	291

Burxonov Sardorjon, Bobomurodov Kayimjon. Green Marketing in the Tourism Industry of Developing Countries as a Trend towards Achieving Sustainable Development	295
Шукуров Фарух Тоҳирович. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ТУРИЗМИНИ ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯСИННИНГ РОЛИ.	301
Muhammadiyev Otabek Akramjon o'g'li. O'zbekistonda turistik korxonalarni rivojlantirish yo'llari	303
Turayev Javohir, Lutfullayev Sherzod, Xushvaqto'v Ramziddin. Turistik xizmatlarni ko'rsatadigan korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlar	306
Uralova Matlyuba Axrorovna. Turistik xizmatlarni ko'rsatadigan korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlari	310
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Sharipova Mastura Uchqun qizi. Turizm va mehmonxona sanoatida marketing tadqiqotlarini o'tkazish.....	313
Yusupov N.S., Akramjonov Abdullo Akramjon o'g'li. Investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy boshqaruvdan samarali foydalanish yo'llari.....	315
Musayev Malikjon Karomatovich. Diniy qarashlar va biznes kesishmasida "Halol" mehonxonalarning o'rni	317
Dushanova Yulduz Faxriddinovna, Mohinur Ro'zimboyeva. TURISTIK XIZMAT KO'RSATADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY YO'NALISHLARI	319
Jafarova Hilola Xalimovna. RAQAMLI TURIZMDA KICHIK BIZNESNI JORIY QILISH VA RIVOJLANTIRISH.....	321
Malikova Shoiray Baxtiyorovna. XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING O'RNI.....	324
Shukurov Ikrom Abdurashitovich. SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR VA MEHMONXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION USULLAR	326
Farmanov Erkin Alimovich. COMPETITIVE DIRECTIONS OF TOURIST ENTERPRISES IN IMPROVING THE QUALITY OF TRANSPORTATION SERVICES	328
Наргиза Ачилова. Некоторые аспекты формирования национального бренда Узбекистана ..	331
Ergashev R.X., Uzoqov J.N. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	336
Ходжаева Дилбар Хуршидовна. Сельский туризм – классификация и мотивы развития	342
Muhitdinova N.I., Yodgorova Z.Y. BUXORO VILOYATIDA TURISTIK RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	345
Xamroyev X. R. "AVITSENA" TEMATIK PARKINI YARATISH IMKONIYATLARI	348
Jo'rayev Abror Turobovich, Maxmudova Nodira Uktamovna. XALQARO TA'LIM TURIZMI KORXONALARINING GLOBAL TURIZM BOZORIDAGA TA'SIRI.....	353
Юлдашев Камол Шарифович. ТРЕНД САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ТУРИЗМ КАК СПОСОБ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ УЗБЕКИСТАНА.....	356
Madina Sayfullayeva. THE ROLE OF LABELLING IN PROMOTING QUALITY AND COMPETENCE IN SUSTAINABLE TOURISM.....	361
Тешабаева О.Н. Ички туризмнинг моҳияти ва унинг миллий иқтисодиётда тутган ўрни	364
Hamdamov Amriddin Hamdam o'g'li. Raqamli integratsiya resurslari orqali smart turizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari	368
Екатерина Владимировна Шевчук. Инфлюенс-маркетинг как инструмент продвижения туристических услуг	372
Адилов Бахтиёр Исматович. МОДЕЛИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫПУСКНИКОВ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ ЗНАНИЙ ЭКОНОМИИ	377
Shadiyeva Madina Jaloliddin kizi. METHODOLOGY IN MANAGEMENT. LEGAL METHODS OF MODERN MANAGEMENT.....	381
Zafar Jumayev. ENG MUHIM SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TIZIMI MOHIYATI VA UNING KORXONALARNI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI	384
Салихов Нодир Джамолович. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ МЕНЕДЖМЕНТА	387